

**BADIIY MATNDA KONNOTATIV MA'NONING FONETIK USUL BILAN
IFODALANISHI**

(O'.Hoshimov. "Dunyoning ishlari" qissasi misolida)

Mo'minova Yulduz Aminboyevna

TGFU O'zbek tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy matnda qo'llanilgan konnotativ ma'noning fonetik usullar bilan ifodalanishi: tovush o'zgarishi, tovush orttirilishi, tovush tushish jarayonlar badiiy matnlardan to'plangan misollar asosida o'rganiladi.

Annotation. In this article, the phonetic expression of the connotative meaning used in the poetry: sound change, rising sound, and falling sound processes are studied on the basis of examples collected from poetic texts.

Kalit so'zlar: konnotativ ma'no, bo'yoqdorlik, fonetik usul , tovush tushishi, tovush ortishi , tovush almashish hodisalari, pragmatika , sema va sememia.

Key words: connotative meaning, coloring, phonetic method, falling sound, rising sound, phenomena of sound exchange, pragmatics, seme and sememia.

Til - kishilar o'rtasida muhim aloqa vositasi bo'libgina qolmay, balki kommunikativ va ekspressiv vazifalarni ham bajaradi. Bu esa tilning nominative va ekspressiv funksiyaga ega ekanligi, ayniqsa, so'zda o'z aksini topadi.

So'zlar tilda ikki xil ma'noda qo'llanadi: denotativ (atash) va konnotativ (qo'shimcha) kabi. So'z ma'nosida faqat denotative ma'no bilan cheklanib qolmasdan, konnotativ ma'no ham ifodalanadi. Konnotativ ma'noning turlari, ularning so'zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarda so'z semantikasiga munosabati, shuningdek, fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'nolar,

ya'ni nutq tovushlarining talaffuzi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar, tilda mavjud supersegment fonetik vositalarda ifodalangan qo'shimcha ma'no "bo'yog'i" hamda morfologik birliklarda ifodalangan konnotativ ma'nolar turli xil ma'no mazmun kasb etadi. Konnotativ ma'no morfologik, sintaktik, leksik va fonetik usullar orqali ham ifodalanadi. Lekin fonetik usul orqali ifodalangan ma'no boshqalariga qaraganda kuchli emotsional - ekspressiv ma'no ifodalaydi. Ma'no so'zlardagina emas, balki tovushlarda hamda ularning talaffuzi bilan bog'liq holatda namoyon bo'ladi. Bu bilan tovushlar orqali turli ma'no va maqsadlar ifodalanganini ko'rish mumkin. Bu esa, albatta, tovushlarning turli holatdagi ifodasi bilan bog'liq holda yuzaga keladi va uslubiy ma'nolarni taqozo etadi. Konnotativ ma'no badiiy matnlarda asarning ohangdorligini, emotsional ta'sirchanligini oshirishda muhim vositadir. Bunda tovushlar orqali turli uslubiy bo'yoq ham ifodalanadi. Nutq tovushlaridagi emotsionallik, jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari va estetik ahamiyati juda kattadir. Shu bilan birga murojaat, undash, xitob kabi vazifalarni, balki so'zlovchining tinglovchiga bo'lgan shaxsiy subyektiv munosabatini, hurmat – e'tibor, yaqinlik, erkalash, g'azab, nafrat, do'q – po'pisa, haqorat kabi ijobiy yoki salbiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

Tabiiyki, nutqda emotsional – ekspressiv vazifa fonetik vositalar yordamida voqealanadi. Bu degani tovushlarni cho'zib talaffuz qilish, birdan ortiq tovushlar orqali ifodalash, tovushlarni orttirish va almashishi evaziga ifodalanadi. Har qanday ma'no, ya'ni so'zdagi ma'no tovushlar orqali ifodalanib, tinglovchi ham ma'noni tovushlar orqali qabul qiladi. Demak, tovushlarning cho'zilishi, almashishi, tushib qoldirilishi kabilar, albatta, ma'noga ta'sir qiladi. So'zdagi unli tovushlarning cho'zilishi emotsiyani kuchaytiradi. Bu holatni O'.Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Adib bu asarida konnotativ ma'noni unli va undosh tovushlar orqali maromiga yetkazib ochib bergan. Unli harflarni orttirish asar badiiy qahramonining ruhiyatini, holatini tez va tushunarli tarzda aniqlab olishga ko'maklashadi. Unli tovushni qaysi vaqtda va qaysi holatda oshirish yozuvchidan katta mahoratni talab qiladi. Ba'zida mana

shunday holatlar asarning kulminatsion, tugunning yechimi, asarning asosiy g`oyasiga asos bo`ladi.

- O'ziyam ja-a-a Xudo urgan xotin ekan-da, o'sha Ra'no! Mana, Egamberdi omon – eson keldi- ku! O'larmidi likillamasdan ko'milib o'tirsa!(“Dunyoning ishlari” qissasi 130- bet). Bu yerda unli tovushni cho'zish orqali yozuvchi konnotativ ma'noni ochib bergan. Bu yerda “a” unlisini cho'zish orqali ayolning sabr – bardoshli emasligini, yengil tabiat ayol ekanligini, ayollik iffat, hayo va eriga vafodorlik hislari paymol bo'lgan holatni ko'rishimiz mumkin.

- Yugurib,Xo'ja ikkalamiz o'tirgan suv bo'yidagi do'nglikka bordim. Yo'q, u yerda ham ko'rinmaydi.

- Xo'ja-a-a! - dedim baqirib.

- Oqshom zulmati bostirib kelayotgan jiydazor orasida “ a-a-a” degan sado keldi.(O 'H “Dunyoning ishlari” ,133- b). Badiiy matnda “ a “ unlisini cho'zish orqali chaqirish, da'vat qilish, so'zlovchi tomonidan tinglovchi e'tiborini jalb qilish kabi yozuvchi pragmatik semani ochib bergan.

Badiiy matnlarda undosh tovushlarning atayin qavatlab talaffuz qilish orqali ekspressivlik ,bo'yoqdorlik ifodalanadi. Badiiy matnda qahramonning ichki ruhiy holatini ifodalash siqilish, hayratlanish, xursandchilik, xafa bo'lish holatlarini yozuvchi aynan kitobxonga yatkazish uchun matnda undosh tovushlarni birdan ortiq keltirish orqali: siqilish, taajjubga tushish kabi pragmatik ma'noni ochib berishga harakat qiladi. Masalan:

-Uff ! Isib ketdim! - Oyim ko'pikli qo'lini sidirib , yoqasi bo g'iq to'rko'ylagini yechdi-da, chekkaga tashladi.(O'sha asar, 107 b). Biror narsadan siqilish, bezish va ko'nika olmaslik kabi konnotativ ma'no ochib berilgan undosh tovushlarni takrorlash orqali.

Obbo ,san-ey, keganingga shuncha bo'bdi – yu, nega hovliga o'tmading, - deydi. – Kechqurun biznikiga o'tmasang , **qattiq** xafa bo'laman, yangangga norin buyurib kelganman”, - deydi. (O'sha asar, 104- b). Bu matnda taajjub,

ta'kid, ma'noni kuchaytirish , hayratlanish kabi pragmatik ma'nolar yuzaga chiqadi.

Bular davlatga xizmat qilgan bo 'lsa, **bizziyam** o'tqazib qo 'ygan joyimiz bor. Bular **Maskovga** borgan bo'lsa, manam borganman. Ularni ko'tar - ko'tar qilasanlar-u mani yozmaysanlar, shunaqami? Mani suyanchig 'im yo'q-da, a? (O'sha asar, 102 - b).

Bu matnda Maskova so'zidagi " a " tovushini aynan tushirilishi va bizziyam so'zidagi "z" undoshining orttirilishi dialektlarda ko 'p uchrashi tabiiy holdir. Lekin bu tovushlarning tushirilishi, orttirilishi yozuvchining maqsadini ochib berishga yordam beradi. Bu esa qahramon nutqi orqali o'zini katta tutish, mensimaslik, qilgan ishini ro'kach qilish kabi konnotativ ma'no ochib berilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mahoratli ijodkor O'tkir Hoshimov o'z qissalarida fonetik vositalardan unumli foydalangan. Bu fonetik vositalar ekspressivlikni oshirish obrazlilikni, unlilarni ho 'zish, undoshlarni takror qo'llash, tovush tushishi, tovush almashishi kabi onetik vositalardan foydalanishi asarning badiiyligini, bo'yoqdorlikni va jarangdorligini oshirishga erishgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Muhammad Hakimov " O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari" - Toshkent, Akademnashr, 2013.
2. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. - Toshkent, 1992.
3. O'tkir Hoshimov " Dunyoning ishlari" . Toshkent, " Ilm- ziyo – zakovat" 2019.
4. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. - Toshkent, "Fan", 1963.